

**PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA PSIXOLOG KONSULTATIV
FAOLIYAT ASOSIDA KASBIY-SHAXSIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH MASALASINI ILMIY-NAZARIY ASOSLANISHI**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich
Nuritdinova Malika Shamsiddinovna*

Annotatsiya: Muayyan psixologik qonuniyatlarni bilmasdan turib biror bir kasbda muvafaqqiyatli bo'lish mumkin emas. Psixologik tadqiqotlarda konsultativ faoliyat bo'lmasa kasbiy – shaxsiy sifatlarini ilmiy nazariy asoslab bo'lmaydi. Psixolog-maslahatchini kasbiy tayyorlash maxsus yo'nalishlari, yo'l yo'rig'lari bo'ladi

Kalit so'z: metod, emotsiyal, motiv, obyektiv, normativ, izolyatsiya, pozitsiya, progressive, individuallik, psixoterapevtik, minimum

Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lzin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lzin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?

*Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.
Shavkat Mirziyoyev Miromonovich*

Muayyan psixologik qonuniyatlarni bilmasdan turib biror bir kasbda muvafaqqiyatli bo'lish mumkin emas. Bilimlar keskin nizoli vaziyatlarda haqiqatni ochish uchun g'oyat muhim, u odamga o'zining bilish, irodaviy, emotsiyal

jarayonlarini nazorat qilishga, boshqalardagi bunday jarayonlarni tekshirish, yo'naltirishga, to'g'ri qaror qabul qilishga imkon beradi.

Psixologik qonuniylatlarni bilish, faoliyat jarayonida muayyan psixologik metodlarni to'g'ri qo'llay olish odam mehnatini yengillashtiradi, unga boshqalar bilan o'zaro munosabatlarini idora qilish va qurish, odamlar hatti-harakatlarining motivlarini chuqur tushunish, obyektiv voqelikni anglash, uni to'g'ri baholash va ushbu bilish natijalarini amaliyatda qo'llashga yordam beradi. Psixologiya fani aralashuv mahsul bermaydigan biror bir inson faoliyati sohasi yo'q deb aytish mumkin. Psixolog-maslahatchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari psixologiyada klassik yondashuvlarning eng mashhur asoschilari: Z. Freyd, K. Yung, V. Frankl, J.-P. Sartr, K. Rodgers tomonidan ajratib ko'rsatilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan maslahatchi psixologlarning shaxsiy xususiyatlarini o'rghanish asosan xorijiy tadqiqotchilarining g'oyalariga mos keladi. Ular ular balog'at, maslahatchining etukligi, uning istagi kabi fazilatlarni nomlashadi o'z-o'zini anglash, haqiqiylik (haqiqiylik), g'amxo'rlik, hamdardlik, ishonch va mijozga ishonish, qadrsiz munosabat, tushuncha va boshqalar.

Kasbiy rivojlanish uchun zaruriy shart psixologning kasbiy o'zini o'zi tarbiyalashi - universitetda olgan bilimlarini amaliyat vositasida kengaytirish, uni munosib bajarish uchun psixologning o'z kasbiy rolini ijodiy o'zlashtirishi. psixologning kasbiy rivojlanishining turli bosqichlarida o'z-o'zini tarbiyalash muhim rol o'ynaydi, lekin u mazmuni va uslubiy jihatdan turlicha tashkil etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kasbiy rivojlanishning ma'lum darajasiga erishgan shaxs o'zining progressiv rivojlanishini to'xtatishi mumkin. Bunday holda, turg'unlikning boshlanishi mumkin. O'qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishining turg'unligiga yordam beruvchi omil, xusan, ta'llim jarayonida pedagogik tizimning izolyatsiyasi hisoblanadi. Turg'unlikni engish o'qituvchining o'quv jarayonidan nafaqat talabalarning, balki o'zlarining shaxsiyatiga ham yo'naltirilishi bilan mumkin. Normativ ravishda berilgan faoliyatni o'zgartirib, turli kasbiy pozitsiyalarni tanlab, shaxs o'zini individuallik sifatida tobora keskinroq e'lon qiladi.

Psixolog-maslahatchini kasbiy tayyorlash maxsus yo'nalishlari quyidagilar:

1. Psixologik maslahatning tayyorgarlik bosqichini o'rghanish.
2. Psixolog- maslahatchi ishlari mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish.
3. Psixolog-maslahatchining mijozlar bilan ishslash metodlarini egallab olish.
4. Quyidagi maxsus sohalarda psixologik maslahat o'tkazish xususiyatlari bilan tanishish: oilaviy maslahatlar, amaliy maslahatlar, psixologik-pedagogik maslahatlar, intim-shaxsiy maslahat o'tkazish.
5. Psixolog maslahatchining ancha tajribali psixologmaslahatchi - supervizor rahbarligi ostida ishlashi.

Psixologik maslahat ishlariiga tayyorgarlik jarayonini o‘rganish tashkiliy masalalar to‘plami, shujumladan maslahat berish sohasi, maslahat ishlari boshlanish vaqtini tanlashdan iborat masalalarni diqqat bilan o‘rganib chiqishni o‘z ichiga oladi. Psixolog-maslahatchi amaliy mazmunda muammoni hal qilishni bilishi kerak bo‘lgan aniq masalalar qatorida quyidagilarni ko‘rsatishi mumkin: Mijozlar aniq doirasini — psixologik maslahat olishga keluvchilarni, psixologik maslahat ishlari mazmuniga ularning mumkin bo‘gan muammolarining bog‘liqligini va maslahatchi bo‘lib ishlovchi psixologlarga qo‘yilishi mumkin bolgan kasbiy talablarga bog‘liqligini aniqlash.

- Psixologik maslahat ishlari uchun psixolog kadrlarni va xizmat ko‘rsatish xodimlarini tanlab olish, kadrlar bilan ish sharoitlari va vazifalari bilan tanishtirish, bir-birlari bilan o‘kzaro aloqalarni tashkil etish, maslahat ishlari qoidalari bilan tanishtirish maxsus tayyorgarlik ishlarini o‘tkazish.
- Maslahatlar amaliy ishlarni boshlash uchun moddiy baza va hujjatlami tayyorlash.
- Mumkin bo‘lgan mijozlar orasida maslahat ishlari to‘g’krisida ma’lumotlarni tayyorlash va tarqatish. Psixolog-maslahatchi ishini tashkil qilish bilan tanishish psixologik maslahat qanday tashkil qilinishi, buning uchun kerak bo‘tgan uskunalar minimumiga nimalar kirishi, psixologik maslahat va psixolog-maslahatchi uchun qulay ish tartibi qanday bolishini, psixologik maslahat ishlari davomida sharoit qanday bo‘lishi kerakligi va qator boshqa masalalarni o‘z ichiga oladi. Endi boshlayotgan mutaxassisning psixolog-maslahatchi ishi mazmuni bilan tanishishi o‘z navbatida quyidagilarni ko‘zda tutadi. Birinchidan, psixologik maslahat nima ekanligi, psixolog amaliy faoliyati boshqa turidan uning farqi nimadan iboratligi bilan tanishish. Ikkinchidan, o‘z kasbiy vazifalarini yuksak darajada bajara olishi uchun psixolog-maslahatchi nimalarni bilishi va bajarishni bilishi kerakligini aniqlash. Uchinchidan, psixologik maslahat asosiy turlari bilan ularga qo‘yiladigan asosiy talablar bilan tanishish. To‘rtinchidan, psixolog-maslahatchi ish sharoitlarini bilish. psixolog-maslahatchi ish metodlarini o‘zlashtirish ish boshlayotgan psixolog-maslahatchining mijozlar bilan muloqot olib borish uslublarini, psixologik maslahat amaliyotida foydalaniladigan psixodiagnostika metodlarini egallashni ko‘zda tutadi. Ushbu uslub va metodlar bo‘lajak psixolog-maslahatchi tomonidan amaliy, mos ravishdagi maxsus mashg‘ulotlar davomida o‘zlashtirilishi kerak. Shunday uslublar va metodlar qatoriga xususan psixologmaslahatchining mijozga to‘g‘ridan- to‘g‘ri psixoterapevtik ta’sir ko‘rsatish metodi kiradi. Turli sohalarda psixologik maslahatlar o‘tkazish xususiyatlarini o‘rganish zarurligi, birinchidan, intim-shaxsiy, oilaviy, amaliy va psixologik-pedagogik maslahatlar — bular turli narsalar ekanligi, ikkinchidan, psixolog-maslahatchi maslahatlarning ushbu turlari bilan bir xil darajada shug‘ullanmasligi va ularga vaqt-vaqt bilan murojaat ctib, shunga qaramay barcha ko‘rsatilgan sohalarda o‘z kasbiy malakasini saqlab qolishi kerakligi bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga psixologik maslahatlar ushbu sohalarida ko‘plab xususiy ancha nozik va murakkab o‘ziga xos masalalar mavjud. Bu masalalarni bilish uzoq vaqtini talab etadi, amaliy muvaffaqiyatga erishish esa — mustahkam malaka va ko‘nikmalar talab etadi. Tajribali mutaxassis rahbarligi ostida amaliyot o‘tayotgan psixolog-maslahatchi rolida ishslash psixolog-maslahatchiga kasbiy tajriba orttirish va amalda kerakli malaka va ko‘nikmalarni egallab olish uchun zarurdir. Bularning barchasiga ma’ruzalar tinglash va kitob o‘qishdan ko‘ra boshqalar tajribalarini o‘rganib olish ancha osondir. Blindan tashqari psixolog-masiahatchi amaliy ishida oldindan bilib bolmaydigan va o‘quv faoliyati davomida qoniqarli javobolibbo‘lmaydigan ko‘plab kutilmagan masalalar yuzaga keladi. Malaka boshqalar kasbiy ishlariga taqlid qilish davomida amaliy ishlab chiqiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, istalgan sohada kasbiy rivojlanishning asosini shaxsning psixologik bilimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ham, oliy o‘quv yurtlarida talabalarga kasbiy psixologiya bo‘yicha ta’lim berib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Psixologik maslahat: o‘quv qo‘llanma/Z.T. Nishanova, Sh. A som uddinova; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: «0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 248 b
2. Verbiczkij A.A. Formirovanie poznavatel’noj i professional’noj motivacii studentov / A.A. Verbiczkij, T.A. Platonova. – M.: NII vy’sshej shkoly’, 1986.
3. Elizarov A.N. Telefon Doversiya: rabota psixologa-konsul’tanta s roditelyami v situacii roditel’sko-yunosheskix konfliktov // Voprosy’ psixologii. – 1995. – № 3.
4. Kochyunas R. Osnovy’ psixologicheskogo konsul’tirovaniya: per. s lit. / R. Kochyunas. – M.: Akademicheskij Proekt, 2000.